

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

APREL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>





YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil).– 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-aprel

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Valijonova Shaxzoda

n-TARTIBLI CHIZIQLI O'ZGARMAS KOEFFITSIYENTLI BIR JINSLI BO'LMAGAN
DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI ANIQMAS KOEFFITSIYENTLAR USULIDA YECHISH 6-9

Mullaboev Omonboy, Bo'riyev Yusufjon

KO'P TILLI PARALLEL KORPUS ARXITEKTURASI VA GAPLARNI AVTOMATIK
MOSLASHTIRISH ALGORITMI 10-15

Soyipov Jasurali, G'aniyeva Maxfuza

FIZIKADAN MASALALAR YECHISH ORQALI O'QUVCHILARDA
TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PISA
TADQIQOTLARINING AHAMIYATI 16-19

IQTISODIYOT FANLARI

G'ofurov Rashidjon, Nishonov Akmalxon

KICHIK BIZNES SUB'EKTLARI TOMONIDAN TO'LANADIGAN SOLIQLAR VA
MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI 20-24

FALSAFA FANLARI

Парниева Айгуль

ФИЛОСОФИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ КАК ПРОСТРАНСТВО
СМОЛООБРАЗОВАНИЯ И ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ХХІ ВЕКА И
СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ 25-30

FILOLOGIYA FANLARI

Tursunova Farangiz

TURKIY TILLARDA YUZ IFODASI VA ULARNING O'XSHASHLIK VA FARQLI
JIHATLARI 31-33

Jo'rayeva Nozimaxon

O'ZBEK TILIDAGI OLMOSHLARNING KO'P MA'NOLILIGI: SEMANTIK
KENGLIK VA KONTEKSTUAL O'ZGARUVCHANLIK 34-38

Inatova Jasmina

ARAB YOZUVIDAN LOTINGA O'TISH JARAYONI VA MUAMMOLARI 39-42

Mavjudboyeva Mardona

DOSTONLARDA TUSH MOTIVINING O'RNI 43-47

Tilaboyeva Musobar, Xusniddinxonova Mahzuma

GEORGE ORWELL ASARLARIDA TOTALITAR JAMIYAT TANQIDI ZAMONAVIY
KONTEKSTDA 48-50

Xamidova Go'zal

ZADIE SMITH ASARLARIDA ZAMONAVIY JAMIYAT TASVIRI 51-53

Adasheva Durdona

FEMINIZM ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTIDA QANDAY AKS ETADI 54-57

<i>Erkinov Ma'murjon</i> TARIXIY ROMAN: QIYOSIY-NAZARIY TAHLIL (INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA)	58-62
<i>Zokirjonova Madina</i> COLLOQUIAL LANGUAGE IN "DOWN AND OUT IN PARIS AND LONDON" A REFLECTION OF CLASS AND IDENTITY	63-65
<i>Azimova Anisa</i> KINETIC SIGNS AND EMOTIONAL CONCEPTUALIZATION IN UZBEK AND ENGLISH DISCOURSE	66-71
<i>Isanova Feruza</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINLARINING YASALISH USULLARI	72-77
YURIDIK FANLAR	
<i>Bakhromova Laylo</i> IMPROVING INTERNATIONAL ANTI-MONEY LAUNDERING STANDARDS: PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPLEMENTATION AND PROPOSALS FOR ENHANCING EFFECTIVENESS	78-86
<i>Abdullayeva Sabohat</i> KRIPTOAKIVLAR ANONIMLIK XUSUSIYATINING HUQUQIY TABIATI: NAZARIY VA DOKTRINALI YONDASHUVLAR	87-90
<i>Muhammadjonova Gulasal</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI	91-93
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Omonova Muxlisa</i> DEONTOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK MOHIYATI	94-96
<i>Tadjibayeva Gavxaroy, Nazarov Abdug'affor</i> EKOLOGIK MADANIYAT ASOSIDA SALOMATLIKNI SAQLASHGA YO'NALTIRILGAN MASHG'ULOTLAR METODIKASI	97-100
<i>Abdulborieva Mexruza</i> TIZIMLI TAHLIL VA STEM YONDASHUVLARI ASOSIDA IQTISODIY YO'NALISH TALABALARI ANALITIK HAMDA KREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI: AMALIY-METODIK MEXANIZMLAR	101-106
<i>G`ulomova Moxinur</i> BOSHLANG'ICH SINIF INGLIZ TILI DARSLARIDA NOODATIY TOPSHIRIQLAR	107-110
<i>Boboyeva Iroda, Olimjanova Jasmina</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	111-118
<i>Ismoilov Ravshan</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI RESURSLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	119-123
<i>Abduvaliyeva Farida</i> MULTIMEDIA VOSITALARINING TA'LIM JARAYONIDAGI DIDAKTIK JIHATLARI	124-127

<i>Эркинова Солохидинова Ранохон, Абдуазизова Вероника</i> МОТИВАЦИОННО ЦЕННОСТНЫЙ КОМПОНЕНТ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	128-130
<i>Абдулбориева Мехруза</i> РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ВУЗЕ СРЕДСТВАМИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: МЕТОДИКА И РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТА	131-134
<i>Jalolova Shahnoza</i> THEORETICAL AND PRACTICAL PROBLEMS OF DISTANCE LEARNING AND FOREIGN LANGUAGE TEACHING	135-139
<i>Usmanova Nodira</i> USE OF NEW INNOVATIVE METHODS IN DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS	140-143
<i>Sodiqova Sevara</i> LINGUISTIC AND COMMUNICATIVE ASPECTS OF ENGLISH SPEAKING DEVELOPMENT THROUGH PROJECT-BASED LEARNING	144-149

FEMINIZM ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTIDA QANDAY AKS ETADI

Adasheva Durdona Xamidullo qizi

NamDPI Xorijiy til va adabiyoti yonalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ingliz adabiyotida feminizmning aks etishi, uning asosiy xususiyatlari va ayol obrazlarining rivojlanishi tahlil qilingan. Tadqiqotda feminizmning tarixiy rivojlanish bosqichlari, feministik adabiy nazariyaning asosiy tushunchalari hamda zamonaviy ingliz adabiyotida gender tengligi masalalarining ifodalanishi o'rganilgan. Shuningdek, klassik va zamonaviy adabiyotdagi ayol obrazlari qiyosiy tahlil qilinib, zamonaviy asarlarda ayolning mustaqil, faol va murakkab shaxs sifatida tasvirlanishi ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari feminizmning adabiyotdagi o'rni tobora kuchayib borayotganini va u jamiyatdagi gender tengligi g'oyalarini rivojlantirishga xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar. Feminizm, zamonaviy ingliz adabiyoti, gender tengligi, ayol obrazlari, feministik nazariya, patriarxat, "female voice", adabiy tahlil, qiyosiy tahlil, ijtimoiy o'zgarishlar.

HOW FEMINISM IS REFLECTED IN MODERN ENGLISH LITERATURE

Adasheva Durdona Xamidullo qizi

Student of the Foreign Language and Literature Department of NamDPI

Annotation. This article analyzes the reflection of feminism in contemporary English literature, its main features, and the development of female characters. The study examines the historical stages of the development of feminism, the key concepts of feminist literary theory, and the representation of gender equality issues in modern English literature. In addition, a comparative analysis of female characters in classical and modern literature is conducted, highlighting that in contemporary works women are portrayed as independent, active, and complex individuals. The results of the study confirm that the role of feminism in literature is steadily increasing and contributes to the development of gender equality ideas in society.

Keywords. Feminism, contemporary English literature, gender equality, female characters, feminist theory, patriarchy, female voice, literary analysis, comparative analysis, social changes.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i8/n12>

Zamonaviy adabiyotshunoslikda feminizm eng muhim nazariy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Feminizm gender tengligini targ'ib qiluvchi va ayollarning jamiyatdagi o'rnini cheklovchi ijtimoiy hamda madaniy omillarni tanqid qiluvchi yondashuvdir. Adabiyotda feminizm ayol obrazlarining yaratilishi, ularning ovozi va tajribasining aks etishi hamda gender rollarining qanday tasvirlanishini o'rganadi. Bu borada Simone de Beauvoir fikricha, ayollik biologik emas, balki ijtimoiy konstruktsiya bo'lib, jamiyat tomonidan shakllantiriladi. Shu sababli adabiyotda ayol obrazlari ham ijtimoiy qarashlar ta'sirida yuzaga keladi. [1; B.55.].

Feministik adabiy tanqid matnlarda ayollarning tasvirini tahlil qilish orqali jamiyatdagi gender tengsizliklarini ochib beradi. U nafaqat ayollarning qanday tasvirlanganini, balki bu tasvirlar ortida qanday mafkuraviy qarashlar mavjudligini ham o'rganadi. Mary Eagleton ta'kidlashicha, feministik tanqid adabiy matnlarda hokimiyat va gender o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan feministik adabiyot ayollarning hayotiy tajribalarini yoritish va ularning jamiyatdagi o'rnini qayta baholash imkonini beradi. [2; B.77.].

Zamonaviy ingliz adabiyoti, ayniqsa XX asr oxiri va XXI asr boshlaridan boshlab, ayol obrazlarini tasvirlashda yangi bosqichga ko'tarildi. Ilgari adabiyotda ayollar ko'pincha erkak qahramonlarga bog'liq, passiv yoki idealizatsiya qilingan obraz sifatida berilgan bo'lsa, bugungi

asarlarda ular mustaqil, faol va murakkab shaxs sifatida tasvirlanadi. Elaine Showalter fikriga ko'ra, zamonaviy adabiyot ayollarning tajribasini markazga qo'yib, "ayol markazli yondashuv"ni shakllantiradi. Bu esa adabiyotda yangi mavzular va yangi qarashlarning paydo bo'lishiga olib keladi. [3; B.87.].

Bugungi kunda gender tengligi masalasi global miqyosda dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Zamonaviy ingliz adabiyoti bu muammoni yoritishda muhim rol o'ynaydi, chunki u ayollarning ijtimoiy hayotdagi o'rni, ularning huquqlari va erkinliklari masalasini keng yoritadi. Asarlarda ayollarning o'zini anglash jarayoni, patriarxal tizimga qarshi kurashi va shaxs sifatida shakllanishi asosiy mavzulardan biri sifatida ko'tariladi. Toril Moi ta'kidlaganidek, feministik adabiyot mavjud ijtimoiy stereotiplarni qayta ko'rib chiqish va ularga tanqidiy yondashish imkonini beradi. [4; B.97.].

Mazkur tadqiqot zamonaviy ingliz adabiyotida feminizmning aks etishini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda ayol obrazlarining evolyutsiyasi, feministik g'oyalar va asosiy mavzular o'rganiladi. Shuningdek, an'anaviy va zamonaviy adabiyotdagi ayol tasvirlari qiyoslanadi hamda zamonaviy o'quvchilarning bu obrazlarga bo'lgan munosabati empirik kuzatuv orqali tahlil qilinadi. Shunday qilib, zamonaviy ingliz adabiyotida feminizm ayol ovozi markazga olib chiqib, gender tengligini yangi bosqichda aks ettiradi. Feministik asarlar ayollarning real hayotiy tajribalarini ochib berish bilan birga, ularga qo'yilgan ijtimoiy cheklovlarni ham yoritadi va bu orqali jamiyatda tenglik g'oyalarining rivojlanishiga hissa qo'shadi. [5; B.99.].

Feminizm tarixiy jihatdan bir necha bosqichlardan o'tgan murakkab ijtimoiy va madaniy hodisa hisoblanadi. Har bir bosqich o'ziga xos maqsad va g'oyalar bilan ajralib turadi hamda adabiyotda ayol obrazlarining tasviriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. XIX asrda yuzaga kelgan birinchi bosqich, ya'ni suffrage movement (saylov huquqi harakati), asosan ayollarga siyosiy huquqlar, xususan ovoz berish huquqini berish uchun kurashga qaratilgan edi. Bu davr adabiyotida ayollar ko'pincha ijtimoiy cheklovlarga qarshi kurashayotgan obraz sifatida tasvirlangan. Bu jarayon ayollarning jamiyatdagi o'rnini qayta ko'rib chiqishga zamin yaratdi. [6; B.77.].

XX asrga kelib feminizm yangi bosqichga ko'tarildi va bu davrda adabiyotda ayolning ichki dunyosi, psixologiyasi va shaxsiy erkinligi muhim mavzuga aylandi. Ayniqsa Virginia Woolf o'zining mashhur g'oyalari orqali ayollarning ijodiy erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi zarurligini ta'kidlagan. XXI asrda feminizm yanada kengayib, intersectionality (kesishuvchanlik) tushunchasi bilan boyidi. Bu yondashuv jins, irq, sinf va boshqa ijtimoiy omillarning o'zaro bog'liqligini o'rganadi. Shunday qilib, zamonaviy feminizm endilikda faqat gender masalalari bilan cheklanib qolmay, balki identitet, irq va ijtimoiy tengsizliklarning kesishmasini ham o'rganishga qaratilgan.

Feministik adabiy nazariya adabiyotdagi gender munosabatlarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, u bir necha asosiy tushunchalarga tayanadi. Birinchidan, patriarxat tanqidi feministik nazariyaning markaziy elementi hisoblanadi. Patriarxat — erkaklar hukmronligi ustun bo'lgan ijtimoiy tizim bo'lib, u adabiyotda ayollarning cheklangan yoki stereotipik tarzda tasvirlanishiga olib keladi. Feministik tanqid bu tizimni ochib beradi va unga qarshi chiqadi. Ikkinchidan, gender rollari tushunchasi muhim ahamiyatga ega. Jamiyatda erkak va ayollarga nisbatan belgilangan rollar adabiyotda ham aks etadi. Feministik nazariya ushbu rollarning sun'iyligini ko'rsatib, ularni qayta talqin qilishga harakat qiladi. Uchinchidan, zamonaviy nazariyada "male gaze" va "female voice" tushunchalari muhim o'rin tutadi. "Male gaze" —

ayollarning erkak nuqtayi nazaridan tasvirlanishini anglatadi. Bu tushuncha Laura Mulvey tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u ayollar ko'pincha ob'ekt sifatida ko'rsatilishini ta'kidlaydi. Bunga qarshi ravishda "female voice" — ayollarning o'z nuqtayi nazaridan hikoya qilishi va o'z tajribasini ifodalashi demakdir. [7; B.89.].

Zamonaviy adabiyotda esa "female gaze" tobora kuchayib, ayol nuqtayi nazari markazga chiqmoqda va bu yangi narrativ uslublarning shakllanishiga olib kelmoqda. Zamonaviy ingliz adabiyotida ayol qahramonlar tasviri sezilarli darajada o'zgardi. Ilgari ayollar ko'pincha passiv, erkaklarga bog'liq yoki idealizatsiya qilingan obraz sifatida tasvirlangan bo'lsa, bugungi kunda ular mustaqil, kuchli va murakkab shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu o'zgarish jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy transformatsiyalar bilan bog'liqdir. Zamonaviy asarlarda ayol qahramonlarning ichki psixologiyasi, travmalari va o'zini anglash jarayoni chuqur tahlil qilinadi. Demak, zamonaviy adabiyotda ayol obrazi ko'p qirrali va real hayotga yaqin shaklda berilmoqda.

Zamonaviy ingliz adabiyotida feminizm bir qator muhim mavzular orqali ifodalanadi:

Gender tenglik – ayollar va erkaklar o'rtasidagi teng huquqlilik masalasi

Tanlash erkinligi – ayollarning o'z hayotini mustaqil boshqarish huquqi

Zo'rvonlik va diskriminatsiya – jamiyatdagi adolatsizliklarga qarshi kurash

Identitet va self-realization – shaxsiy o'zlikni anglash jarayoni

Zamonaviy ingliz adabiyotida feminizmni chuqurroq tushunish uchun klassik va zamonaviy asarlarni qiyosiy tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Klassik adabiyotda ayol obrazlari ko'pincha ijtimoiy me'yorlarga bo'ysunuvchi, passiv va erkak qahramonlarga bog'liq holda tasvirlangan bo'lsa, zamonaviy adabiyotda ular mustaqil, faol va o'z hayoti uchun mas'ul shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, Jane Eyre asarida bosh qahramon ma'lum darajada mustaqil fikrlovchi bo'lsa-da, baribir jamiyatdagi an'anaviy gender me'yorlari ta'sirida harakat qiladi. Aksincha, The Handmaid's Tale romanida ayol obrazlari patriarxal tizimga qarshi ochiq kurash olib boruvchi, o'z huquqlari uchun ongli ravishda harakat qiluvchi shaxs sifatida tasvirlanadi.

Klassik adabiyot	Zamonaviy adabiyot
Ayol passiv	Ayol mustaqil
Erkak markaz	Ayol markaz
Ijtimoiy cheklov	Erkinlik va qarshilik

Xulosa qilganda, zamonaviy ingliz adabiyotida feminizm muhim o'rin egallashi va ayol obrazlarining tasvirida sezilarli o'zgarishlar yuz bergani aniqlandi. Klassik adabiyotda ayollar ko'pincha passiv va ijtimoiy cheklovlarga bo'ysunuvchi obraz sifatida tasvirlangan bo'lsa, zamonaviy adabiyotda ular mustaqil, faol va o'z hayotini boshqaruvchi shaxs sifatida namoyon bo'lmoqda. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ingliz adabiyoti feminizm g'oyalarini yanada chuqurroq va keskinroq ifodalaydi hamda ayol ovozini markazga olib chiqadi. Bu jarayon adabiyotda gender tengligi masalasining kuchayganidan dalolat beradi. Shuningdek, feministik adabiyot jamiyatdagi patriarxal qarashlarni tanqid qilish va yangi ijtimoiy qarashlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Natijada zamonaviy asarlarda ayol qahramonlar murakkab psixologik holatga ega, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etuvchi

obrazlar sifatida berilmoqda. Umuman olganda, zamonaviy ingliz adabiyotida feminizm nafaqat adabiy yo'nalish, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi muhim omil sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Beauvoir, S.. Ikkinchi jins (The Second Sex). Parij: Gallimard, 1949 295-b.
2. Eagleton, M. Feministik tanqid bilan ishlash (Working with Feminist Criticism). Oksford: Blackwell nashriyoti, (1996). 12-bet.
3. Showalter, E. O'ziga xos adabiyot (A Literature of Their Own). Prinston: Princeton University Press, (1997). 45-bet.
4. Moi, T. Gender va matn siyosati (Sexual/Textual Politics). London: Routledge nashriyoti, (2002). 78-bet.
5. Woolf, V. (1929). A Room of One's Own. London: Hogarth Press, (1929). 6-bet.
6. M Boltabayeva - Galaxy International Interdisciplinary Research Journal The Expression OF the Human" Inner Self" in Graham Greene's Novels
7. Mulvey, L. "Visual Pleasure and Narrative Cinema". Screen, (1975). 11-bet.
8. M Boltabayeva, G Gaipova Universal xalqaro ilmiy jurnal Изучение педагогического значения использования технологии слайма в обучении английскому языку учащихся 3-4 классов в условиях инклюзивного образования. (2026). Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 3(2.1), 147-151.
9. Marifatkhon Boltabayeva. The Clash Of Religious and Secular Views In Graham Greene's Works. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 6(3), 8. <https://doi.org/10.47134/emergent.v4i1>. (2025). 64.
10. Isanova, Feruza (2021) INTERACTIVE METHODS OF TEACHING ENGLISH IN MODERN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Taiwan Journal of Linguistics, 1 (19). pp. 1-8. ISSN 1729-4649. <https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/2090>.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI

2026-yil, aprel

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil). – 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-aprel.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.